

JOURNAL OF GEOGRAPHY AND NATURAL RESOURCES

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>**SOME ASPECTS OF THE DEMOGRAPHIC SITUATION OF SARIOSIA DISTRICT****Manuchekhr Safarov**

Master's student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan**Pardayev Nodirbek**

Lecturer

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan**ABOUT ARTICLE****Key words:** population, migration, marriage, divorce, birth rate, urban population, rural population.**Received:** 12. 12. 22**Accepted:** 14. 12. 22**Published:** 16. 12. 22**Abstract:** this article analyzes the population of Saryosiy district, its reconstruction and other demographic indicators. The population of Sariosia district has increased significantly in recent years. As a result, many changes took place in the structure of the population. These include indicators of migration, marriage, divorce, birth, death, urban population and rural population. Some aspects of these demographic indicators of the district are studied in the article.**SARIOSIYO TUMANI DEMOGRAFIK VAZIYATINING AYRIM JIHATLARI****Manuchexr Safarov**

Magistrant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston**Pardayev Nodirbek**

o'qituvchi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston**MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** aholi, migratsiya, nikoh, ajralish, tug'ilish koeffitsiyenti, shahar aholisi, qishloq aholisi.**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sariosiyo tumanining aholisi, uning takror barpo bo'lishi va boshqa demografik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Sariosiyo tumani aholisi soni so'nggi yillarda sezilarli

ko'paydi. Buning natijasida aholi tarkibida ancha o'zgarishlar ro'y berdi. Migratsiya, nikoh, ajralish, tug'ilish, o'lim, shahar aholisi va qishloq aholisi ko'rsatkichlari shular jumlasidandir. Maqolada tumanning ana shu demografik ko'rsatkichlarining ayrim jihatlari o'rganilgan.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ САРИОСКОГО РАЙОНА

Манучехр Сафаров

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

Пардаев Нодирбек

преподаватель

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: население, миграция, браки, разводы, рождаемость, городское население, сельское население.

Аннотация: в данной статье анализируется население Сарыусийского района, его реконструкция и другие демографические показатели. Население района Сариясия значительно увеличилось за последние годы. В результате в структуре населения произошли многочисленные изменения. К ним относятся показатели миграции, браков, разводов, рождаемости, смертности, городского населения и сельского населения. В статье исследуются некоторые аспекты этих демографических показателей района.

KIRISH

Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning 1-yanvar holatiga Sariosiyo tumani doimiy aholi soni 213,1 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 3,8 ming kishiga yoki 1,8 foizga ko'paydi.

Milliy tarkibi: o'zbeklar – 65,3 % (139,1 ming kishi), tojiklar – 33,0 (70,3 ming kishi), turkmanlar – 0,2 % (0,5 ming kishi), ruslar – 0,5 % (1,0 ming kishi), tatarlar – 0,2 % (0,5 ming kishi) va boshqalar - 0,7 % (1,5 ming kishi)[3].

1-jadval


Sariosiyo aholi soni(2013-2021-yillar)

	Jami aholi soni		Shu jumladan:	
	2013	2021	erkaklar	ayollar
Surxondaryo viloyati	2100,0	2681,0	1354,8	1326,2
Sariosiyo tumani	178,5	213,1	106,4	106,7

Manba: Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi.

ASOSIY QISM

Surxondaryo viloyati aholisi soni 01.01.2021 holatiga ko'ra, 2681 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, shundan 213.1ming kishi Sariosiyo tumaniga to'g'ri keladi. Undan 106.4 ming kishi erkaklar bo'lsa, qolgan 106.7 ming nafari ayollar hisoblanadi. Tuman aholisi asosan, tekisliklarda yashaydi. Tog'lardagi aholi juda kamchilikni tashkil etadi. Sariosiyo tumani aholi soni bo'yicha viloyatda to'rtinchi o'rinda turadi. Tuman aholisi 2020-yilga nisbatan 101.8 foizga o'sgan.



1-rasm. Sariosiyo tumanining doimiy aholi sonida erkak va ayolning ulushi, (foizda) 01.01.2021)

Shuningdek, 2021-yilning 1-yanvar holatiga Sariosiyo tumanida 50,1 % ayollar va 49,9 % erkaklar tashkil etgan. Demak, Sariosiyo tumanida ayollar soni erkaklar sonidan yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin [3].


2-jadval

Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati.

	kishi			Har 1000 aholiga, nisbatan	
	2019-yil	2020-yil	O'sish, kamayish	2019-yil	2020-yil
Tug'ilganlar	5682	5815	135	27,4	27,5
O'lganlar	787	769	-18	3,8	3,6
Tabiiy o'sish	4895	5046	151	23,6	23,9
Nikohlar	2062	1893	-169	10,0	9,0
Ajralishlar	155	165	10	0,7	0,8


Manba: Sariosiyo tumani pasporti.

Tug‘ilish darajasi. 2020-yilning yanvar–dekabr holatiga Sariosiyo tumanida tug‘ilganlar soni 5815 kishini tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga (5682 kishi) nisbatan 135 taga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsiyenti mos ravishda 27,5 promilleni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga (27,4 promille) nisbatan 0,1 promillega ko‘paydi[3].



2-rasm. Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati (kishi, birlikda)


Nikohlar va ajralishlar. 2020-yil yanvar–dekabr FHDYO organlarida 1893 ta nikohlar va 165 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 9,0 ga nikoh (2019-yilning tegishli davrida 2062 ga) va 0,8 ga ajralishlar (2019-yilning tegishli davrida 155 ga) to‘g‘ri keladi[3].



3-rasm. Sariosiyo tumani bo‘yicha tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar bo‘yicha ma’lumot (birlikda) (yanvar–dekabr holatiga)

Migratsiya. Ma’lumki, migratsiya (lotincha: *migratio* -ko‘chaman, joyimni o‘zgartiraman) bu- aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishidir.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yilning yanvar–dekabr oylarida Sariosiyo tumani bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 398 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 1636 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus 1238 kishiga (2019-yilning shu davrida minus 393 kishi) teng bo‘ldi[3].



4-rasm. Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari (kishi, birlikda)

3-jadval

Aholining jinsi va yoshi bo'yicha tarkibi (kishi)

№	Ko'rsatkichlar nomi	Jami	Erkaklar	Ayollar
	Aholi soni(01.01.2021-yil holatiga)	213100	106400	106700
	<i>Shu jumladan yoshi bo'yicha:</i>			
1)	0-1 yoshgacha	5647	2820	2827
2)	1-7 yoshgacha	30473	15215	15258
3)	7-12 yoshgacha	21289	10630	10659
4)	12-16 yoshgacha	13085	6533	6552
5)	16-19 yoshgacha	9355	4671	4684
6)	19-23 yoshgacha	14299	7140	7159
7)	23-30 yoshgacha	29684	14822	14862
8)	30-60 yoshgacha	75290	37593	37697
9)	60-80 yoshgacha	12404	6193	6211
10)	80-100 yoshgacha	1549	783	785
11)	100 yosh va undan yuqori	6		6

Manba: Sariyoyi tumani pasporti.

Tuman aholisining jinsi va yoshi bo'yicha tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 30-60 yosh oralig'idagilar aholisining eng ko'p qismini tashkil etmoqda. Undan keyingi yuqori ko'rsatkich 1-7 yosh orasidagi aholi qatlamiga tegishli. Uchinchi eng yuqori ko'rsatkich 23-30 yosh oralig'idagi aholiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich kutilganidek, 100 yosh va undan yuqori aholi uchun xos.

Qishloq aholisi. Surxondaryo viloyati O'zbekistonda "eng qishloqli" mintaqalardan hisoblanadi. Bu yerda hozirgi vaqtda jami 847 ta QAM mavjud bo'lib, ularda viloyat aholisining deyarli 80,8 foizdan ortig'i istiqomat qiladi. Tabiiyki, bunday urbanizatsiya darajasi past hududlarda, fikrimizcha, qishloq joylar negizi hisoblangan QAMni o'rganish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Qishloqlar sonining davriy o'zgarishi hududiy tafovutlarga ham ega. Chunonchi, Surxondaryo viloyatining shimoli-sharqiy hududida joylashgan tumanlar tarkibiga kiruvchi qishloqlar nisbatan ko'pligi bilan ko'zga tashlanadi.

XULOSA

Bu yerdagi qishloqlar, soy va daryo bo'ylarida, yo'l atrofida tarqalgan bo'lib, aholisining zichlik darajasi nisbatan pastdir. Qishloq aholi manzilgohlarining soni, o'sishi, hududiy tarqalishini o'rganish, ularning joylashuvidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatib beradi. Baland tog' yon bag'ridagi soylarda joylashgan qishloqlar hisoblanib, ular asosan Sariosiyo tumanining eng baland tog' qismidagi To'polong, Bobotog', Kishtut, Shaxtirud qishloqlaridir. Ushbu tuman viloyat hududining 19,5 foizini egallagan holda, katta qismi tog'liklardan iborat bo'lib, jami qishloqlarning katta qismi ham (12,8 foizi) shu yerda to'plangan. Shuningdek, Setog', Hazorbog' qishloqlarida ham atigi 34-69 kishi yashaydi[2].

Umuman olganda, so'nggi yillarda Sariosiyo tumani aholisi sonining ko'payishi jadal o'smadi. Bunga sabab so'nggi o'n yilliklarda aholi sonining o'zgarish dinamikasidagi o'zgarishlar yuqori emas. Aholi asosan, tuman hududining janubiy qismida zich joylashgan. Shimolga tomon (relyef balandligi ortadi) aholi siyraklashib boradi. Bunga sabab yashash uchun qulay bo'lgan infrastruktura (yo'llar, maktablar, shifoxonalar va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari) bilan ta'minlanish darajasi kamayadi. Bundan tashqari boshqa demografik ko'rsatkichlar ham aholi soniga mos ravishda bir maromda o'zgarib borgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sattarov.A. Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari. Toshkent-2021.
2. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
3. Sariosiyo (o'tmishi va buguni) tarixiy, hujjatli, badiiy risola. Toshkent – "Muharrir" nashriyoti, 2013.
4. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
5. Sariosiyo tumani pasporti.